AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH — ICHKI TALABNI RAG'BATLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH OMILI	900
Mustafoev G'olib Sultonmurodovich, Abruyev Abdumalik Oynazarovich	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	906
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
KORXONADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	911
Salimova Husniya Rustamovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	918
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIAVIY MAHSULOTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI	926
Rasulova Dilfuza Valiyevna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH VA MEHNAT BOZORI KO'RSATKICHLARINING DINAMIKASI	932
Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FOYDALANUVCHI SADOQATINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING VA NEYROMARKETING MEXANIZMI SIFATIDA GEYMIKATSIYA ELEMENTLARINI QO'LLASH: DODO PIZZA MOBIL ILOVASI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL	937
Yuldashev Jamshid Abrarovich, Daminova Nilufar Bahrom qizi	



KORXONADA XODIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	945
Sadriddinova Sevinchxon Sadriddin qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	948
Murodova Zilola Asatulla qizi	
KUZATILMAYDIGAN IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, SHAKLLARI, TURLARI VA YUZAGA KELISH OMILLARI.....	952
Abdullayev Shavkat Nasriddinovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR SMETASI VA SHTATLAR JADVALINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	959
Yaqubova Nodira Olim qizi	
РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI	977
Xudayberdiyev Otabek Absalomovich	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI	983
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
Anvarova Lobarxon	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT	992
J.Kamalova	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	999
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	



OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI

Madenova Elmira Nzamatdinovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Menejment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası dotsenti PhD

elektron adres: e-lmir-a78@mail.ru

ORCID0000-0003-0411-8957

Annotatsiya. Ushbu maqolada Orol bo'yi mintaqasi, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasida iqlim o'zgarishi ta'siridan kambag'al va ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlarining nomutanosib ravishda ko'proq zarar ko'rishi muammosi ilmiy-statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Ekologik inqiroz, iqtisodiy tanazzul va ijtimoiy himoyasizlik o'rtasidagi bog'liqlik iqlim adolati nazariyasi ma'lumotlari asosida ko'rib chiqiladi. Davlat siyosatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, Orol bo'yi, Qoraqalpog'iston, kambag'allik, zaif aholi, iqlim adolati, nomutanosib zarar, moslashish siyosati.

Abstract. In this article, based on scientific and statistical data, the problem of disproportionately greater damage to poor and socially vulnerable segments of the population from the impact of climate change in the Aral Sea region, in particular in the Republic of Karakalpakstan, is analyzed. The relationship between the ecological crisis, economic decline, and social insecurity is considered based on data from the theory of climate justice. Practical proposals aimed at improving state policy have been developed.

Key words: climate change, Aral Sea region, Karakalpakstan, poverty, vulnerable population, climate justice, disproportionate damage, adaptation policy.

Аннотация. В данной статье на основе научно-статистических данных анализируется проблема несоразмерно большего ущерба бедным и социально уязвимым слоям населения от последствий изменения климата в Приаралье, в частности в Республике Каракалпакстан. Связь между экологическим кризисом, экономическим спадом и социальной уязвимостью рассматривается на основе данных теории климатической справедливости. Разработаны практические предложения, направленные на совершенствование государственной политики.

Ключевые слова: изменение климата, Приаралье, Каракалпакстан, бедность, уязвимое население, климатическая справедливость, непропорциональный ущерб, политика адаптации.

KIRISH

Ushbu tadqiqot ishida iqlim o'zgarishi sharoitida kambag'al va ijtimoiy jihatdan zaif aholi qatlamlarining nomutanosib ravishda zarar ko'rishi masalasi Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida o'rganiladi. Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo bir necha yo'nalishda — iqlim adolati nazariyasi, ko'p o'lchovli kambag'allik, ekologik-iqtisodiy zaiflik va mintaqaviy moslashish siyosati doirasida chuqur o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 11 sentyabr 2023-yil PF-158-sonli Farmoni “O'zbekiston – 2030” strategiyasida O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yuqori o'sish sur'atlariga erishishda mintaqalarning boy tabiiy-iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshlik afzalliklaridan samarali foydalanish muhim



ahamiyat kasb etadi. Shu sababli “O‘zbekiston-2030” rivojlanish strategiyasida “hudlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish” (60 maqsad) va iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirini oldini olish (70 maqsada) alohida urg‘u berilgan.[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ataniyazova O.A. (2003)-Orol inqirozining sog‘liq oqibatlari Orol inqirozining sog‘liqqa ta’siri bo‘yicha birinchi fundamental tadqiqotlardan Ataniyazovaning xulosalari bugungi kungacha dolzarb bo‘lib qolgan. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Qoraqalpog‘istonda homilador ayollarning 99% i kamqonlik, 5 yoshgacha bolalarning 62% i anemiya bilan kasallangan[3]. Bu ko‘rsatkichlar iqlim o‘zgarishi va ekologik inqirozning ayollar hamda bolalar sog‘ligiga ko‘p avlodli ta’sirini ko‘rsatadigan eng muhim dalil hisoblanadi. Maqolada ushbu ma’lumot gender-sezgir iqlim moslashish siyosati zarurligini asoslashda qo‘llaniladi. Reymov N. va boshqalar (2023) - Qoraqalpog‘istonda suv tanqisligi va yer foydalanish muammolari. Mahalliy tadqiqotchilar guruhi suv tanqisligi sharoitida Qoraqalpog‘istonda yer resurslaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rgangan[4]. «Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlarning 54–58 foizida suv tanqisligi kuzatilmoqda»[4].

«Yerlarning 77% i sho‘rlangan, bu ekin hosildorligini pasaytirish va dehqonlarning daromadini kamaytirishga olib kelmoqda»[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qiyosiy tahlil usuli. Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri qiyosiy tahlil usuli bo‘ldi. Ushbu usul yordamida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (qashshoqlik darajasi, ishsizlik, sog‘ligi saqlash xolati, bandlik tuzilmasi) O‘zbekistonning boshqa viloyatlari va mamlakat ortacha ko‘rsatkichlari bilan qiyoslanib o‘rganildi. Bundan tashqari, Orol dengizi xavzasidagi 1960-2025 y. - yillar oraligidagi ekologik o‘zgarishlar (dengiz maydoni, shorlanish, iqlim ko‘rsatkichlari) retrospektiv qiyosiy tahlil asosida baholandi. Bu orqali mintaqaning qanchalik ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan inqirozli holatga tushganligi miqdoriy va sifat jihatidan aniqlandi.

Statistik tahlil usuli. BMT va PROON tomonidan 2020-yil otkazilgan Qoraqalpog‘iston aholisining ehtiyojlarini baholash so‘rovi natijalari, O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari va xalqaro tashkilotlarning rasmiy xisobotlaridan olingan miqdoriy statistik tahlil yordamida qayta ishlandi. Qashshoqlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichlari, sog‘liqni saqlash statistika va oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha korsatkichlar jadvallar va taqqoslash korinishida tizimlashtirilib, tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Orol bo‘yi mintaqasi – xususan Qoraqalpog‘iston Respublikasi – bu muammo eng yaqqol namoyon bo‘ladigan hududlardan biridir. Bir paytlar dunyodagi to‘rtinchi yirik ichki suv havzasi bo‘lgan Orol dengizi bugungi kunda asl hajmining 10 foizgacha qisqarib ketgan. O‘zbekistonda 1880 yildan buyon o‘rtacha yillik harorat 1,6 °C ga oshgan bo‘lib (13,2°C dan 14,8°C gacha), bu global o‘rtacha sur‘atdan yuqori bo‘lgan o‘sish hisoblanadi. 2030–2050 yillarda mintaqada harorat yana 1,5–3 °C ko‘tarilishi prognoz qilinmoqda. Orol bo‘yida esa harorat ko‘tarilishi ayniqsa yuqori bo‘lishi kutilmoqda.[10]

Qoraqalpog‘iston O‘zbekistondagi kambag‘allik darajasi eng yuqori hududlardan biri bo‘lib, uning aholisi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy, texnologik va siyosiy resurslardan mahrum. Aynan shu ikki tomonlama zaiflik (double vulnerability) muammosi mintaqaviy barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy chaqiruv sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Iqlim adolati (climate justice) konsepsiyasi iqlim o‘zgarishini nafaqat ekologik, balki chuqur ijtimoiy adolat muammosi sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, kam daromadli aholi qatlamlari va marginallashtirilgan guruhlar iqlim o‘zgarishining eng og‘ir oqibatlarini boshdan kechiradi, ular bu oqibatlarga hissa qo‘sha olmagan bo‘lsa ham. BMT iqtisodiy va ijtimoiy ishlari departamentining (DESA) 2016 yilgi tadqiqotiga ko‘ra, kambag‘allar va zaif qatlamlar iqlim xavflaridan nomutanosis ravishda ko‘proq zarar ko‘rishi – bu baxtsiz tasodif emas, balki tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgan siyosatdagi tizimli kamchiliklarning natijasidir.[5]

IPCC AR6 hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda kam daromadli aholi qatlamlari o‘rtacha boylikka ega aholiga nisbatan iqlim o‘zgarishidan 70% ko‘proq daromad yo‘qotishi taxmin qilinmoqda. Zaiflikni kuchaytiruvchi uch asosiy mexanizm mavjud: (1) ta’sir kanali – kambag‘al aholi ko‘pincha ekologik inqiroz mintaqalarida yashaydi; (2) moslashish kanali – moliyaviy va texnologik resurslar yetishmasligi; (3) siyosiy ishtiroq kanali – qaror qabul qilish jarayonlaridan chetlashtirilganlik.[2]

Demografik holat va aholi ko‘rsatkichlari. Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholisi 2002,7 ming kishini tashkil etgan (2023-yilga nisbatan 1,3% ga o‘sish). Shundan: ayollar – 996,8 ming kishi, erkaklar – 1005,9 ming kishi; shahar aholisi 969,2 ming kishi, qishloq aholisi 1012,5 ming kishi bo‘lib, qishloq aholisi salmog‘i ko‘proq (51%). Mintaqa aholisining qishloq joylarda ustun bo‘lishi ularni iqlim o‘zgarishi ta’siriga ko‘proq duchor qiluvchi omillardan biridir.[1-jadval]



1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasi demografik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	Ma'lumot	Manba/yil
Jami aholi soni	2 002,7 ming kishi	Uzstat, 2024-yil 1-yanvar
Shahar aholisi ulushi	48,4%	Uzstat, 2024
Qishloq aholisi ulushi	51,6%	Uzstat, 2024
Ayollar soni	996,8 ming kishi	Uzstat, 2024
Erkaklar soni	1 005,9 ming kishi	Uzstat, 2024
Oilalar soni	458 533 oila	Demografiya portali, 2022
Ko'chib ketganlar (2021)	18 588 kishi	Demografiya portali, 2021
Ko'chib kelganlar (2021)	11 826 kishi	Demografiya portali, 2021

Kambag'allik darajasining dinamikasi (2020–2025)

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonda kambag'allik darajasi eng yuqori mintaqalardan biri bo'lib kelgan. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Statistika agentligi va Jahon banki birgalikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga asosanib, Qoraqalpog'istondagi kambag'allik dinamikasi quyidagicha (2-jadval):

2-jadval. Kambag'allik darajasi dinamikasi, 2022–2025 yy.

Yil	O'zbekiston (jami, %)	Qoraqalpog'iston (%)	Farq (f.b.)
2022	14,0	~19,8 (taxminiy)	~5,8
2023	11,0	17,3 (OPHI MPI: 29,9% zaif)	~6,3
2024	8,9	10,8	+1,9
2025	5,8	6,6	+0,8

(Manba: O'zbekiston Statistika agentligi, Jahon banki, ITIM).

OPHI (Oxford Poverty and Human Development Initiative) tomonidan o'tkazilgan Ko'p o'lchovli Kambag'allik Indeksi (MPI) tadqiqotiga ko'ra, Qoraqalpog'iston aholisining 29,9% ko'p o'lchovli kambag'allik bo'yicha himoyasiz qatlamga kiradi – bu mamlakatdagi eng yuqori ko'rsatkich.[5] Bu ko'rsatkich rasmiy pul kambag'alligi ko'rsatkichidan ancha yuqori bo'lib, aholi turmushining turli sohalaridagi (ta'lim, sog'liqni saqlash, turar-joy) ko'p o'lchovli muhurligini aks ettiradi.

Mehnat bozori va ishsizlik. Qoraqalpog'iston respublikasida ishsizlik darajasi mamlakatning boshqa mintaqalariga nisbatan yuqori bo'lib kelmoqda. 2022-yilning yanvar–sentyabr oylari bo'yicha mehnat resurslari statistikasi quyidagicha (3-jadval).

3-jadval. Qoraqalpog'iston respublikasida mehnat bozori ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qoraqalpog'iston respublikasida (2022)	O'zbekiston respublikasida o'rtachasi
Mehnat resurslari soni	1 073,9 ming kishi	—
Ish bilan band aholi ulushi	62,5%	~68%
Ishsizlar soni	71,1 ming kishi	—
Ishsizlik darajasi	8,9–9,3%	~6,8% (2023)
Iqtisodiy faol bo'lmagan aholi	279,8 ming kishi	—

(Manba: O'zbekiston Statistika agentligi, 2022) [9]

2021-yilda mintaqadan 18 588 kishi ko'chib ketgan, 11 826 kishi ko'chib kelgan. Migratsiya saldosini manfiy (-6 762 kishi) bo'lib, bu iqlim o'zgarishi va iqtisodiy inqiroz oqibatida yuzaga kelgan majburiy ko'chib ketish tendensiyasini ko'rsatadi. Odatda ko'chib ketuvchilar – yosh va ta'lim olgan erkaklar – bo'ladi; qolganlar esa moslashish resurslari eng kam bo'lgan qishloq ayollari, keksalar va bolalar hisoblanadi.

Ayollar va bolalar: salomatlik ko'rsatkichlari. Qoraqalpog'iston respublikasida ayollar va bolalar iqlim o'zgarishidan ayniqsa kuchli zarar ko'rmoqda. Orol dengizining qurishidan kelib chiqqan oziqlanish yetishmovchiligi, suv ifloslanishi va iqlim o'zgarishi ta'sirida mintaqadagi salomatlik ko'rsatkichlari juda og'ir ahvolni aks ettiradi (4-jadval).



4-jadval. Qoraqalpog'istonning asosiy salomatlik va ijtimoiy ko'rsatkichlari.

Salomatlik ko'rsatkichi	Qoraqalpog'iston	O'zbekiston o'rtachasi	Manba
Kamqonlik (homilador ayollar)	99%	~20–30%	Ataniyazova O.A., WWF (2003)
Kamqonlik (homilador bo'lmagan ayollar)	91%	~18–22%	Ataniyazova O.A., WWF (2003)
Kamqonlik (o'smir qizlar)	87%	~15–20%	Ataniyazova O.A., WWF (2003)
Kamqonlik (bolalar 6–59 oy)	53,6%	Milliy o'rtacha	Crighton E.J. va b. (2010)
Og'ir kamqonlik (bolalar)	3–27 marta yuqori	Taqqoslaganda	Tadqiqotlar (2010)
Sil kasalligi (100 000 aholiga)	136–138 holat	~70 holat	Kasalliklar nazorati ma'lumotlari
Ko'p o'lchovli kambag'allik (MPI)	29,9%	11–14% (2023)	OPHI/UNDP (2023)

Kamqonlik kasalligi mintaqada ona o'limi va chaqaloqlar sog'lig'ining yomonlashishiga asosiy sabablardan biri bo'lib, u iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi va muhit ifloslanishining bevosita oqibati hisoblanadi[2]. Sog'liqni saqlash xizmatlarining hajmi o'sib bormoqda: 2021-yil yanvar-aprelda 31,8 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yil yanvar-aprelda 102,6 mlrd. so'mga yetdi (2024-yilga nisbatan 13,6% o'sish), ammo bu o'sish hali ham ehtiyojni to'liq qoplashga yetmaydi (5-jadval).

5-jadval. Qoraqalpog'iston respublikasida sog'liqni saqlash xizmatlar hajmi

Yil (yanvar–aprel)	Sog'liqni saqlash xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)	O'sish
2021	31,8	—
2022	38,5	+21,1%
2023	47,6	+23,6%
2024	80,1	+68,3%
2025	102,6	+28,1%

Manba: Qoraqalpog'iston respublikasi Statistika boshqarmasi, 2025. [7]

Qishloq xo'jaligi va tirikchilik yo'qotilishi. Iqlim o'zgarishi bilan kuchaygan suv taqchilligi va tuproq sho'rlanishi kichik fermerlarning tirikchiligi uchun asosiy xavf manbaiga aylangan. O'tgan 15 yil ichida O'zbekistonda jon boshiga suv ta'minoti 3 048 m³ dan 1 589 m³ gacha kamaygan (47,8% qisqarish). Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligiga bo'lgan suv talabi 1999–2001-yillarda 39–41%, 2007–2010-yillarda 50–55%, so'nggi yillarda esa 54–58% ga kamaydi. Aralkum sahrosiga aylangan quruq dengiz tubidan ko'tarilayotgan chang to'fonlari 60 000 km² maydondan tarqaladi va yil davomida marta-marta bo'lib turadi.

Ko'p o'lchovli zarar tsikli. Kambag'al aholining iqlim o'zgarishidan nomutanosib zarar ko'rishini oddiy birlamchi ta'sir bilan cheklanmaydi – u ko'p o'lchovli zarar tsiklini (multi-dimensional harm cycle) ishga tushiradi. Daromad yo'qotilishi (qishloq xo'jaligi, baliqchilik tanazzuli) → kambag'allikning chuqurlashishi; salomatlikning yomonlashuvi (kamqonlik, sil, chang kasalliklari) → ish qobiliyati pasayishi; ta'limdan uzilish (ayniqsa qizlar) → insoniy kapital yo'qotilishi; majburiy migratsiya → ijtimoiy parchalanish – bu zanjir mahalliy aholi uchun chiqib bo'lmaydigan tuzoqni hosil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Orol bo'yi mintaqasida kambag'al va zaif aholining iqlim o'zgarishidan nomutanosib zarar ko'rishini kamaytirish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlar zarur:

1. Maqsadli ijtimoiy himoya tizimi: Iqlim bilan bog'liq shok-sug'urta (climate shock insurance) va maqsadli naqd pul transfertlari tizimini kambag'al qishloq oilalari uchun joriy etish; davlat va xalqaro donor mablag'larini maqsadli yo'naltirish.

2. Ayollarni moslashish jarayoniga jalb etish: Iqlim ma'lumotlari va kredit imkoniyatlarini ayollargacha yetkazish, ularni qishloq xo'jaligi va suv boshqaruvi qarorlariga faol ishtiroq ettirish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat 20% respondent iqlim o'zgarishi xavflaridan xabardor.



3. Sog'liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlash: Kamqonlik, sil va ekologik kasalliklarga qarshi profilaktik dasturlarni, ayniqsa homilador ayollar va bolalarni qamrab olgan holda kuchaytirish; ichimlik suvi sifatini yaxshilash.

4. Suv tejamkor texnologiyalar va iqlimga chidamli navlar: Suv tejamkor sug'orish, tuz chidamli navlar va almashlab ekish usullarini kichik fermerlar uchun imtiyozli shartlarda taqdim etish; O'zbekistonda sug'orish tizimi samaradorligini 0,63 dan 0,73 ga oshirish rejalashtirilgan.

5. Iqlim savodxonligini oshirish: Mahalliy aholining iqlim o'zgarishi xavflari to'g'risidagi xabardorligini oshirish bo'yicha mahalla va qishloq darajasida dasturlar amalga oshirish.

6. Mintaqalararo tengsizlikni kamaytirish: Qoraqalpog'istonning barqaror rivojlanishi uchun maxsus 'iqlim kompensatsiya fondi' tashkil etish va resurslarni adolatli taqsimlash – bu NDC 3.0 ning ijtimoiy adolat tamoyiliga mos keladi.

Orol bo'yi mintaqasida kambag'al va zaif aholi qatlamlarining iqlim o'zgarishidan nomutanosib ravishda ko'proq zarar ko'rishi – bu tasodif emas, balki tarixiy tengsizlik, ekologik inqiroz va siyosiy cheklanishlarning murakkab kombinatsiyasi natijasidir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki: Qoraqalpog'iston 2025-yilda ham O'zbekistondagi eng yuqori kambag'allik darajasiga ega viloyatlardan biri bo'lib qoldi (6,6% – milliy 5,8% dan yuqori); OPHI MPI bo'yicha 29,9% aholi ko'p o'lchovli kambag'allikka zaiflik darajasida yaqin; homilador ayollarning 99% kamqon; 54–58% qishloq xo'jaligiga suv etishmasligi qayd etilmoqda.

Ushbu muammo faqat iqlim siyosati bilan emas, balki kambag'allikni kamaytirish, gender tengligi va insoniy rivojlanish siyosatlari bilan birgalikda, kompleks tarzda hal qilinishi zarur. O'zbekistonda NDC 3.0 va "Yangi O'zbekiston" barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar olg'a qadam bo'lsa-da, zaif aholi qatlamlarini iqlimga moslashish jarayoniga faol jalb etish va ularning manfaatlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni kuchaytirish – bugungi kun talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. IPCC AR6, Working Group II, Chapter 8: Poverty, Livelihoods and Sustainable Development. – Geneva: IPCC, 2022.
2. Ataniyazova O.A. - Homilador ayollarning 99% kamqonligi - Orol inqirozining avlodlarga ta'siri, 2003.
3. Реймов Н. ва бошк. (2023) - Сув такчилиги 54–58% га етган - фермерлик тирикчилигига тоғридан-тоғри зарар[[gvsu](#)]
4. OPHI/CERR. Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report. – Oxford: UNDP, 2023.
5. GIZ. Building a Sustainable Future for Karakalpakstan. – Bonn: GIZ, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Qoraqalpog'iston Respublikasi demografik holati. – Toshkent, 2024.
7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi. Sog'liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko'rsatkichlari. – Nukus, 2024.
8. IISD. O'zbekiston: Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza. – Winnipeg: IISD, 2024.
9. Узгидромет (2021 г.) маълумотлари.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
